

## Dunyoni egallagan to'rt hukmdor

Bu boradagi rivoyatlarning sahih yoki zaifligi haqida ma'lumotlar yo'q bo'lsada, ko'plab tarixiy manbalar bizga bu haqida so'zlaydi. Mashhur musulmon tarixchi va olimlari - Imom Tabariy, Ibn Kasir, Ibn Javziy, Suyutiylar ham ushbu to'rt hukmdor haqidagi rivoyatlarni o'z asarlarida keltirib o'tishgan.

Ibn Jarir Tabariy "Tafsir"ida aytadi: "To'rt nafar kishi - ikki mo'min va ikki kofir yer yuziga mashriqidan mag'ribigacha hukmronlik qildi. Ikki mo'min: Sulaymon ibn Dovud (alayhimassalom) va Zulqarnayn, ikki kofir esa: Buxtanassor va Namrud ibn Kan'on. Ulardan boshqasi unga egalik qilishmagan".

Ibn Abu Shayba Mujohiddan rivoyat qilib shunday deydi: "Yer yuzining barchasini faqatgina to'rt kishi egalladi. Ikkitasi musulmon, ikkitasi kofir. Ikki musulmon: "Sulaymon ibn Dovud (alayhimassalom) va Zulqarnayn, ikki kofir: Buxtanassor va Ibrohim (alayhissalom) Rabbisi borasida bahslashgan kishi (ya'ni Namrud)".

Hokim ham Mustadrakda Muoviyadan shunga o'xshashini rivoyat qiladi: "U kishi aytdi: "Yer yuzi podshohi to'rttadir: Sulaymon ibn Dovud, Zulqarnayn, Hulvon ahlidan bir kishi va yana boshqa kishi". Unga: "Xizmi?" deyilganda, u: "Yo'q", dedi".

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarixda yer yuziga to'liq hukmronlik qilgan, hech bir qo'shin ularning oldida tura olmagan podshohlar to'rtta bo'lgan.

Davriy tartibga ko'ra ular quyidagilar:

1. Namrud. Ur/Qadimgi Iroq.
2. Zulqarnayn. Himyar/Yaman.
3. Sulaymon alayhissalom. Qudus/Falastin.
4. Buxtanassor. Bobil/Qadimgi Iroq.

Ushbu to'rt hukmdor haqida o'rni kelganda #Uzoq\_tarix rukni bilan birma-bir ma'lumot beramiz.

Ibrat uchungina o'rganilgan tarix manfaatli tarixdir! #Uzoq\_tarix

## Dunyoni egallagan to'rt hukmdor (1)

Namrud - boshiga birinchi bo'lib toj kiygan, yer yuzidagi ilk zolim, xudolikni da'vo qilgan hukmdor.

Uning ismi nasroniy va yahudiylarning Tavrot va Talmud kabi kitoblarida ayrim tafsilotlari bilan zikr qilingan. Qur'oni Karimda Namrudning ayni ismi kelmagan bo'lsa-da, Tabariy, Ibn Kasir, Qurtubiy va Bag'aviy kabi mashhur mufassirlar o'z tafsirlarida u haqida ma'lumot berib o'tishgan.

Xususan, ushbu oyatdagi Ibrohim alayhissalom bilan Alloh borasida hujjat talashgan hukmdor Namrud ekanligi ko'plab tarixchi va mufassirlar tomonidan ta'kidlangan: "Alloh podshohlik berib qo'ygani sababidan Ibrohim bilan Robbisi haqida hujjat talashganni bilmadingmi? Ibrohim: "Mening

Robbim tiriltiradi va o'ldiradi", deganda, u: "Men tiriltiraman va o'ldiraman", dedi. Ibrohim: "Albatta, Alloh quyoshni Mashriqdan chiqaradi, bas, sen uni Mag'ribdan chiqargin-chi", dedi. Bas, kufr keltirgan lol qoldi. Va Alloh zolim qavmlarni hidoyatga solmas" (Baqara:258).

Nasabi: Uning nasabi borasida ixtilof mavjud. Ba'zilar Namrudning nasabi Som ibn Nuhga boradi, desa, boshqalar Hom ibn Nuhga taqalishini aytadilar. Oradagi ajdodlari ismlarida ham xilma-xillik bor.

ibn Kan'on (نمرود) Ibn Kasir aytadi: "Ibrohim bilan Robbisi haqida hujjat talashgan bu kimsa Numruz ibn Folix ibn Obir ibn (نمرود) ibn Kush ibn Som ibn Nuadir. (Boshqa rivoyatda) aytiladiki, u Numrud Sholix ibn Arfaxshaz ibn Som ibn Nuadir. Birinchi qavl Mujohid va boshqalarniki" (Tafsiru Ibn Kasir).

Ibn Asir "Al-Kaamil fit-tarix"da, Ibn Kasir "Al-bidaaya van-nihaaya"da uning nasabi Hom ibn Nuhga borib taqalashini aytganlar.

Hayoti: Namrudning tug'ilgan sanasi noaniq. Ba'zi tarixchilar qadimiy Iroq qo'lyozmalari asosida uning miloddan avvalgi 2053-yilda tavallud topganini aytganlar.

Namrud "To'fon voqeasi"dan keyingi ilk asrlarda insoniyatning juda ko'pchiligi tomonidan qo'rqib tilga olinadigan hukmdor shaxsi bo'lgan.

U "Ikki daryo (Frot va Dajla) oralig'i" bo'lmish Mesopatamiya tamadduniga asos solgan. Bu o'lkada juda uzoq muddat (bir rivoyatga ko'ra 400 yil) hukmronlik qilgan. Shu sabab uning davrida Mesopatamiya "Namrud yeri" deb atalgan. U sakkizta shahar barpo qilgan: to'rttasini Bobilda, to'rttasini Oshurda qurdirgan. Tarixga mashhur "Burji Bobil" minorasini bunyod etgan.

Namrud katta va kuchli qo'shin tuzgan. Uning qarshisida boshqa birorta qo'shin tura olmagan. U avvallari vahshiy hayvonlarni ovlovchi sifatida tanilgan bo'lsa, keyinchalik xalqlarni "ovlay"digan qonxo'rga aylangan. Yurtlarni istilo qilgan, aholisini o'ldirgan va asir olgan.

Qatoda aytadi: "U takabburlik qilib tug'yonga ketgan ilk shaxsdir. Bobildagi saroy unga tegishli" (Tafsirul Qurtubiy).

U avval hech kim qilmagan ishni qildi - o'zini "Xudo" deb e'lon qildi. Alloh unga nabiyyi Ibrohim alayhissalomni yubordi. U esa haqqa bosh egmadi. Hatto "Burji Bobil" minorasiga chiqib Buyuk va Qahhor Zotni munozaraga chorladi.

Oqibati: Namrud umrining so'nggi damlarini azobda o'tkazdi. Bu haqida Imom Qurtubiy shunday deydi: "Namrud Alloh bilan jang qilishni qasd qilganida Alloh uning ustidan chivinlarning bir eshigini ochib qo'ydi. Chivinlar quyosh yuzasini to'sib oldilar. Namrudning askarlarini yeb, suyagidan boshqa a'zolarini qoldirmadilar. Chivinlardan biri Namrudning bosh miyasiga kirib oldi. Xuddi sichqon kabi uni kemira boshladi. Bu voqeadan so'ng uning huzurida odamlarning eng azizi boshiga bolg'a bilan uradigan kimsa bo'ldi (ya'ni boshiga urilsa, chivin harakatdan to'xtab Namrud biroz tinchlanar, shu bois boshiga urishlarini o'zi so'rar edi). Namrud bu baloning ustida qirq kun qoldi" (Tafsirul Qurtubiy).

Ibrat: 1988-yil arxeologlar Iroqning Musul shahridan jami og'irligi 45 kilogramga teng bo'lgan 610 dan ortiq turli zeb-ziyatlar topishadi. Dalillar bu topilma "Namrud xazinasi"ning bir qismi ekanini ko'rsatadi. Ajabo! Dunyoni zabt etgan hukmdor o'zi bilan bir tanga olib ketishga qodir bo'lmadi. U munozara qilmoqchi bo'lgan Robbisining huzuriga ziyoniga ishlovchi amallari bilan ketdi, xolos. Na

ulkan qo'shin va na behisob boyluk bor uning yonida... Dunyoni egallagan to'rt hukmdor: Zulqarnayn

25 avgust 2020. Muallif: <https://t.me/Muhammadoshiq>

Zulqarnayn - Qur'oni Karimda qissasi ummatga ibrat bo'lsin deya keltirilgan, xalqlar va millatlar u haqida ko'p tortishgan, tarixchilar uning bahsidan charchamagan buyuk shaxsiyat egasi.

“Alloh taolo Zulqarnaynni bu (nom) bilan zikr qildi va uni adolat ila maqtadi. U mashriqlar va mag'riblargacha yetdi. Mintaqalarga egalik qildi va aholisini zabt etdi”.

(Ibn Kasir. “Al-bidaayatu van-nihaayatu”)

Bu inson borasida ko'p gapirish, u haqidagi rivoyatlar, qissalar, e'tiroflar, tahlil-u taxminlarni ko'p keltirish mumkin. Ularning ichida haqiqatlari ham, to'qimalari ham, afsona-yu asotirlari ham bor.

Gapning cho'zilib ketishi va o'quvchining malollanishidan xavsirab ushbu maqolada faqatgina Zulqarnayn haqidagi ishonchli musulmon tarixchi va mufassirlari aytgan gaplarini keltirdim. U qurdirgan devor hamda Ya'juj va Ma'juj qavmi haqidagi ma'lumotlarga to'xtalib o'tirmadim.

- bir qavm bilan buzg'unchi Ya'juj va Ma'juj qavmi o'rtasida ulkan metin devor qurgan;  
- mo'min, adolatli va solih banda.

(Kahf surasining 83-98-oyatlarini o'qish tavsiya etiladi!)

Bundan boshqa u haqida aytilgan barcha gapda ixtilof bor.

Shaxsiyatidagi ixtilof

Zulqarnayn kuch va hikmat egasi edi. Alloh unga yer yuzida keng imkoniyatlar berdi: mulk, qo'shin, qurol va hikmat. Unga tillar ilmi berildi. Qaysi qavmga yurish qilgan bo'lsa, barchasining tilini bilar va ular bilan o'zlarining tillarida gaplashar edi (Ibn Kasir Abdurrahmon ibn Zayd ibn Aslamdan rivoyat qilgan).

Yerning mashriqi-yu mag'ribiga egalik qildi. Podshohlar undan qo'rqdi. Millatlarning arabi-yu ajami unga xizmat qildi. U o'ziga yetgan bu imkoniyatlarning barini Robbisidan deb bildi va unga osiy bo'lmadi.

Xo'sh, bu buyuk shaxsiyat egasi kim? Ulamolalar bu haqida ko'p va xo'b bahs qilganlar. Bejizga emas, albatta. Chunki Qur'oni Karimda Zulqarnaynning shaxsi haqida aniq ma'lumot yo'q.

Uning shaxsi haqida aytilgan barcha gap quyidagi to'rt fikr atrofida aylanadi:

1. Nabiy;

2. Farishta;

3. Hukmdor;

4. Bularning hech biri emas. Ogohlantiruvchi solih bir banda, xolos.

Hofiz ibn Hajar Asqaloni aytadi: “Zulqarnayn borasida ixtilof qilingan. Ba'zilar u Nabiy bo'lgan, ba'zilar farishta bo'lgan, yana boshqalar Nabiy ham, farishta ham bo'lmagan, deb aytishgan.

Ko'pchilik u podshohlardan edi, degan”.

Bag'aviy “Tafsir”ida shunday deydi: “Abu Tufayl dedi: “Ali roziyallohu anhudan Zul Qarnayn haqida so'raldi: “Zul Qarnayn payg'ambar bo'lganmi yoki hukmdor?” U kishi aytdilar: “Payg'ambar ham, hukmdor ham bo'lmagan. Balki Allohni yaxshi ko'rgan va Alloh ham uni yaxshi ko'rgan banda bo'lgan. Allohga sodiq, Alloh ham unga sodiq edi”.

(Bag'aviy. “Tafsirul Bag'aviy”)

“Sahihi shuki, u adolatli hukmdorlardan bir hukmdor bo'lgan”.

(Ibn Kasir. “Al-bidaayatu van-nihaayatu”)

Demak, aksar ulamolarning fikriga ko'ra, Zulqarnayn adolatli, qavmini Allohga chaqirgan hukmdordir.

Ismi va qavmidagi ixtilof

1. U Misr ahlidan bo'lib, ismi Marzubon ibn Marduba al-Yunoniydir. Yunon ibn Yofis ibn Nuhning farzandidan bo'lgan (Ibn Is'hoq).

2. U Himyar (Yaman) ahlidan bo'lib, ismi Sa'b ibn Zu Yazan al-Himyariydir. Voil ibn Himyar farzandidan (Ibn Hishom).

3. U Rum ahlidan bo'lib, ismi Iskandar ibn Faylafus ibn Yamalus ar-Rumiyydir.

4. U Fors ahlidan bo'lib, ismi Afridun ibn Asqiyon ibn Jamshiddir.

Ba'zilar uning ismi Abdulloh ibn Dahhok ibn Ma'addir, degan.

Ko'pchilik sahoba va tobe'inlar fikriga ko'ra, Zulqarnayn Himyar ahlidandir. Himyar Yaman hududida joylashgan qadimiy davlat bo'lgan.

Muqriziy "Xutot" da aytadi: "Bilki, ulamolarning nazdida Alloh zikr qilgan Zulqarnaynning ismi Sa'b ibn Horisdir. Uning nasabi Qahton ibn Hud ibn Sholix ibn Arfaxshaz ibn Som ibn Nuhga borib taqaladi. U Himyar podshohlaridan biridir. Himyarliklar esa Oriiba (asl arab) arablaridir. Ularni yana "Arbo" arablari deb ham atashadi". Uning Himyar ahlida deyilishiga yana bir asos, Yaman hukmdorlarining ismi odatda "Zu" kalimasi bilan boshlanuvchi nom bilan atalgan. "Zu Yazan", "Zu Nuvos" kabi. Xususan, Muqriziy bunga ishora qilib shunday degan: "Devorni qurgan Zulqarnaynni Iskandar deb o'ylaganlar yanglishdilar. Chunki "zu" lafzi arabchadir. "Zulqarnayn" Yaman podshohlarining laqablaridan bo'lgan".

Davri borasidagi ixtilof

1. Yofis ibn Nuh (alayhissalom) dan keyingi ilk asrlarda yashagan.
2. Ibrohim alayhissalom davrlarida yashagan (Ibn Kasir).
3. Samud qavmidan keyin yashagan.
4. Iso alayhissalom bilan Muhammad sollallohu alayhi vasallamning zamonlari orasidagi vaqtda yashagan.

Zulqarnayn Aleksandr Makedonskiymi?

Ba'zilar Qur'onda zikr qilingan Zulqarnayn miloddan avvalgi IV asrda yashagan, Fors shohi Doro ibn Doro ustidan g'alaba qozongan, Shimoliy Hindistongacha bo'lgan hududlarni egallagan Aleksandr Makedonskiy ekanini aytadi. Bu gap xato va rad qilingandir.

Ibn Kasir shunday deydi: "Azraqiy va boshqalarning aytishicha, Zulqarnayn Ibrohim al-Xalil alayhissalomning qo'llarida musulmon bo'lgan. U va Ismoil alayhissalom Ibrohim alayhissalom bilan birga Ka'bai Mukarramani tavof qilishgan".

Ibn Hajar Asqaloniy aytadi: "Iskandar Yunoniy Iso alayhissalom zamonlariga yaqin bo'lgan. Ibrohim va Iso (alayhimassalom) larning zamonlari orasida ikki ming yildan ortiq vaqt bor. Keyingi Iskandar (ya'ni Aleksandr Makedonskiy) ham mulkining kengligi va ko'plab shaharlarni zabt etgani uchun yoki forslar ustidan g'alaba qozonib uning hukmdorini qatl qilgani, natijada ikki katta mamlakat - Rum va Forsga egalik qilgani uchun xuddi oldingisiga o'xshab "Zulqarnayn" deb atalgan". Haqiqat shuki, Alloh Qur'onda xabarini bergan Zulqarnayn oldingisidir. Ularning orasida bir necha tomonlama farq mavjud. Birinchisini yuqorida zikr qildim (ikkisi boshqa-boshqa davrlarda yashagan). Ikkinchidan, Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) mo'min bo'lmagan. Ustozi Arastotolis (Aristotel) bo'lib, uning aytganlarini qilgan. U ham, shubhasiz, mo'min emas. Uchinchidan, Zulqarnayn arablardan edi, Iskandar esa yunonlardan bo'lgan".

(Ibn Hajar. "Fathul boriy sharhu Sohiihil Buxoriy")

Ibn Kasir "Al-bidaayatu van-nihaayatu" da Qur'onda zikr qilingan Zulqarnayn bilan vaziri Arastu bo'lgan Iskandar haqida bahs yuritib shunday deydi: "Ikkisini faqat ishlarning haqiqatini bilmaydigan esi pastgina tenglashtirishi va bir-biriga o'xshatishi mumkin!"

Nima uchun "Zulqarnayn"?

esa "yuz yillik davr", "shox", "avlod" kabi (قرن) "egalikni ifoda qiladi. "Qarn (نو) "Arab tilida "zu ma'nolarni anglatadi. "Zulqarnayn" - "Ikki shox egasi" degani.

Nima uchun bunday nomlangani haqida turli qarash bor:

1. Dunyoning ikki chekkasi - mashriqi va mag'ribigacha yetib borgani uchun (Ibn Abbos);
3. Nur va zulmat ichiga kirgani uchun;
4. Tushida osmongacha cho'zilib, quyoshning ikki "shox"ini ushlaganini ko'rgani uchun. Tushini qavmiga aytgach qavmi uni shunday atagan;
5. Uning sochidan chiroyli ikki kokili tushib turgani uchun (Ibn Atiyyaning nazdida eng yaxshi gap shu);

6. Sallasi yashirib turadigan ikki shoxi bo'lgani uchun (Ibn Kasir zaif degan);

7. Jang paytida ikki shoxli dubulg'a kiygani uchun.

8. Boshining ikki qismi misdan bo'lgani uchun.

9. Qavmi uning boshiga ikki bora urganida o'lib, so'ng yana qayta tirilgani uchun.

"Abu Tufayl Ali (roziyallohu anhu) dan rivoyat qiladi: "Ali aytdi: "U "Zulqarnayn" deb ataldi. Chunki u qavmini Alloga taqvo qilishga buyurgan edi, ular uning boshining o'ng uchiga urdilar. U o'ldi. Bas, Alloh uni qayta tiriltirdi. Keyin yana ularni Allohdan qo'rqishga chaqirdi. Ular uning boshining chap uchiga urdilar. U o'ldi. Bas, Alloh uni yana qayta tiriltirdi".

Hazrati Alidan shu ma'nodagi rivoyatni biroz boshqacha lafzlar bilan Ibn Kasir, Qurtubiy, Baydoviy, Suyutiy kabi mufassirlar tafsir kitoblarida keltirishgan. Alloh biluvchiroqdir! Xulosa

"Qur'on bu kishining zikrida uning mashhur laqabidan ko'piga - ismi, yurti va qavmini ta'yin qilish (kabi ma'lumotlar) gacha o'tmadi. Chunki bu narsa tarix va rivoyat ahlining ishidir, Qur'onning maqsadlaridan emas".

(Ibn Oshur. "At-tahrir vat-tanvir")

Qur'oni Karim Zulqarnayn qissasini ibrat o'laroq keltirdi. Uning qiyofasida odil hukmdor shaxsiyati qanday bo'lishi kerakligini bayon qildi. Ibrohim alayhissalom bilan Robbisi borasida hujjat talashgan hukmdor qayerda-yu, ikki tog' orasidagi katta devorni bitirgach: "Bu Robbimning rahmatidandir", degan solih banda qayerda!?

Maqola so'nggida siz aziz o'quvchiga shuni eslatib o'tmoqchiman: tarix ibrat uchun o'rganilishi kerak bo'lgan fandır! Unda ismlar, qavmlar, davrlar haqidagi ma'lumotlardan ko'ra kelajak uchun olinadigan xulosalar muhim...

Manbalar asosida: Muhammadoshiq Sulaymon alayhissalom. Qudus/Falastin.

4. Buxtanassor. Bobil/Qadimgi Iroq

Bu hukmdorlar haqida ma'lumotlarni Youtubedadan topasiz.

Muallif: Muhammad Oshiq

Tuzuvchi: @Pdf\_book\_uz